Tojikiston Fanlar akademiyasi delegatsiyasi tashrifi

2018 yil 2 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Tojikiston Fanlar akademiyasi prezidenti Farhod Raximi boshchilig‘idagi delegatsiya tashrif buyurdi. Mehmonlarni O‘zR FA Prezidenti B.S.Yuldashev, bosh ilmiy kotib B.A.Baxadirov, vitse-prezident B.T.Ibragimov kutib oldi. Shundan so‘ng FA ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, yetakchi olimlar ishtirokida davra suhbati bo‘lib o‘tdi.

Davra suhbatida ikki davlat o’rtasida ilm-fanni rivojlantirish, yangi hamkorlik yo’nalishlarini belgilab olish masalalari bo’yicha muzokaralar olib borildi.